

OLIV TA'LIM PEDAGOG KADRLARI MALAKASINI VA KREATIVLIGINI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI

Qaxxarova Zilola Abdug'ani qizi

*Toshkent viloyati, Olmaliq shahar,
19-IDUM Informatika va AT fani
o'qituvchisi, magistr*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'limni rivojlantirishda kadrlar malakasini baholash tizimidagi zamonaviy yondashuvlar va xalqaro tajribalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Undan tashqari, malaka oshirish kurslarida pedagog kadrlar malakasini baholashning zamonaviy yondashuvlari bo'yicha qanday usullardan foydalanish kerakligini ko'rsatadi. O'qituvchilar o'z faoliyatini multimediali shaklda taqdim etish orqali baholashning qanday qulay usullarini tanlashi va kasbiy kreativligi, o'z ish faoliyatini rivojlantirishda e'tibor qaratishi kerak bo'ladigan yangi texnologiyalardan samarali foydalanishi, interaktiv darsliklardan va onlayn ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishi bo'yicha tushunchalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Pedagog kadrlar, evristik ta'lim, kreativlik, baholash, tahlil qilish, zamonaviy yondashuvlar, uchinchi renessans, xalqaro tajribalar, yangi texnologiyalar, interaktiv darsliklar, online ta'lim, xorijiy ta'lim dargohlari, amaliy tajribalar.*

Abstract. *This article provides information on modern approaches and international experiences in the system of personnel qualification assessment in the development of higher education. In addition, it shows what methods should be used according to modern approaches to the evaluation of the pedagogue's qualifications in training courses. How teachers can choose convenient ways to evaluate their work by presenting it in a multimedia format, and how to effectively use new technologies that they should pay attention to in the development of their professional creativity, use interactive textbooks and online learning opportunities. concepts are presented.*

Key words: *Pedagogical staff, heuristic education, creativity, assessment, analysis, modern approaches, third renaissance, international experiences, new technologies, interactive textbooks, online education, foreign educational centers, practical experiences.*

Kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalardan samarali foydalanish – davr talabi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ish va ta'limni rivojlantirish jarayonlarini kompyuterlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanishni tashkil etish juda katta iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka erishishda muhim ahamiyatga egadir.[1]

Ta'lim jarayonida texnik vositalardan keng foydalanish, internet tarmog'ida axborot izlash, olish va saqlash masalasi o'quv-metodik manbalar tayyorlash va ularni tatbiq etish uchun dasturiy ishlanmalar yaratishga zarurat tug'iladi. Test dasturlarini ishlab chiqishda kompyuterning dasturiy ta'minoti muhim ahamiyat kasb etadi. Testning tuzilishi, bajarilishi

va tekshirish algoritmini kuzatishda eng muhimi testning dizayni, strukturasi, ishlash sxemasi, natijani tezlikda tekshirishi inson mehnatini osonlashtiradi.

Axborotni baholash va to'plash jarayonini osonlashtirish maqsadida tadqiqot loyihasi, ishning maqsadlari haqida tushuntirish, tekshirish jarayoni natijalaridan foydalanish, innovatsiya jarayonlari, xususiyatlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tahlil qilinadi.

Hozirgi kunda raqamli pedagogika kompetensiyalari ta'limda ishonchli, foydali, qimmatli, ahamiyatli, ommaviy axborot vositalari va ularning yuqori darajada axborot bilan ishlash ko'nikmalari yig'indisi sifatida qaraladi.[2] Bunda texnologik, axborot, multimediyaga oid ko'nikmalar, bilim va munosabatlar, murakkab ko'p savodxonlikni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda hamkorlikka asoslangan holda ta'lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish strategiyalari, ta'lim-tarbiya tizimining konseptual xususiyatlari va modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari, ta'lim-tarbiya tizimi rivojlanishining zamonaviy islohotlari, ta'lim-tarbiya jarayonlari tizimining qiyosiy tahlillari va dinamikasiga hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlarni o'rganish alohida e'tiborga molikdir.[3]

Shu jihatdan, ilg'or tajribalarni almashish orqali ta'limning tashkiliy pedagogik jarayonidagi va boshqarish faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish, yangicha yondashuv, texnologiya va tamoyillarni ishlab chiqish va rivojlantirish zaruratini izohlaydi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

Evristik ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonida ijodiy fikrlash, mustaqil ishlashi, bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llash, xulosa chiqarishga yo'naltiradigan pedagogik texnologiyalardan, hamkorlikdagi ta'lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan ta'lim turidan foydalaniladi. Uchinchi Renessansni vujudga keltirishda ahamiyat kasb etuvchi kreativlik, innovatsion yaratuvchanlik qobiliyatida biz avvalo ijodkorlikning chegarasini belgilab olishimiz darkor.

Oliy ta'limda pedagog kadrlarning o'z faoliyatlarini multimediali shaklda taqdim etish orqali baholash usuli o'qituvchilarning dars jarayonlarini tahlil qilish, ta'limning sifat va samaradorligini baholash, ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini oshirish va o'quv jarayonlarini innovatsion tarzda olib borishga imkon beradi.[4]

Tahlilli baholash esa pedagog kadrlarning o'quv jarayonlarini boshqarish va natijalarini analiz va sintezlashida o'zaro muhokamani talab qiladi.[5]

O'qituvchilar uchun interaktiv multimedia darsliklarni va testlash jarayonlarini yaratish, onlayn ta'lim platformalarida talabalar bilan aloqada bo'lish, web- ilovalardan foydalanish, webinarlar va internet resurslaridan foydalanish, pedagogik texnologiyalar va yangi ta'lim berish usullarini o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Dunyo mamlakatlari tajribalaridan foydalanish esa pedagogik sohani jadal rivojlantirishda katta ahamiyatga kasb etadi. Xorijiy ta'lim dargohlarining o'quv siklini va tajribalarini o'rganish, pedagog kadrlarga turli mamlakatlarda amaliy tajriba olish imkonini beradi. Bu tajribalar, o'qituvchilarga xorijiy ta'lim muassasalarining ta'lim standartlarini tushunish, xorijiy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, innovatsion metodlarini

o‘zlashtirish va xalqaro hamkorlik asosida kadrlar malakasini oshirish, ularning qiziqishlariga javob berishni o‘rganishga imkon beradi.

Masalan, sharq mamlakatlariga nazar tashlasak, so‘nggi o‘n yillikda amalda bo‘lgan Yaponiya professional ta‘lim tizimiga quyidagi tendensiyalar xosdir:

- har bir shaxsning hayoti davomida uzluksiz ta‘lim tizimini yaratish;
- professional ta‘lim tizimiga moliyaviy, moddiy va intellektual investisiyalar kiritilishini kengaytirish;
- professional ta‘lim bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarni tayyorlash yo‘nalishini tubdan mustahkamlash va kengaytirish;
- innovasion ta‘limga o‘tish hamda ta‘lim mazmunining yanada muvozanatga erishishi;
- oliy ta‘lim muassasalari boshqaruvida ularning mustaqilligini kengaytirish;
- yangi axborot texnologiyalari asosida noan‘anaviy oliy ta‘lim muassasalarini tashkil etish.[6]

Aytish mumkinki, oliy ta‘limda ham, kadrlar malakasini oshirish kurslarida ham ta‘lim-tarbiya jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etish, boshqarishning samarali modellarini ishlab chiqishda xalqaro tajribalarning o‘rganilishi kasbiy rivojlanishda imkoniyat yaratadi. Bu esa o‘z navbatida yuqori intellektual salohiyatli, yuksak axloqiy sifat va fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kovaleva G.S. Matematik sifatni qiyosiy baholashning asosiy yondashuvlari va dunyo mamlakatlarida tabiiy fanlar bo‘yicha ta‘lim. (I.M.: IOSO RAO, 1996 yil)
2. “Ta‘limni transformatsiyalash sharoitida rahbar va pedagog kadrlarni malakasini oshirish: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil 1-may, Toshkent.(284-bet)
3. Abdulxayeva X.T. Pedagog kadrlarni kasbiy kompetentligini baholash va tashhishlashning zamonaviy yondashuvlari va xorijiy tajribalar. International scientific and practical conference “Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches” March 13, 2024.(137-bet)
4. N.Ismoilov, Q. Shodmanov. Professional ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar tahlili. Science and innovation.2022 y.
5. Xasanova G.X. O‘zbekiston, Yaponiya va Janubiy Koreya kasb-hunar ta‘limi tizimlarining asosiy xususiyatlari //Zamonaviy ta‘lim jurnali.– Toshkent, 2018. (№3 – B.23-29)
6. Nodirov J.M Shodmanov Q.O. Professional ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishga oid xorijiy mamlakatlar tajribalarining qiyosiy tahlili (yaponiya misolida)."Экономика и социум" №6(109)-1 2023.(313-bet)
7. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>